

ELEKTRON KUTUBXONA: NOYOB TIZIMLAR TILSIMI

Rustam Malikov,

Toshkent farmatsevtika instituti Axborot resurs markazi direktori

Shoxruh Imomboyev,

Toshkent farmatsevtika instituti Axborot resurs markazi 1-toifali mutaxassisini

So'nggi yillarda Axborot kutubxona markazlari va Axborot resurs markazlarini raqamlashtirish muhim vazifalardan biri bo'lib qolmoqda. Ushbu jarayon esa o'z navbatida mazkur muassasalar faoliyatiga aloqador organlar faoliyatida yangi tizimlarni joriy etish masalalarini qo'yadi. Bu esa mamlakatimizdagi barcha AKM va ARMLar orasida yagona birlikni, ta'limning yuqori darajasida kutubxonalardan foydalanishning zamonaviy va qulay usullarini, shuningdek, professor o'qituvchilar, talabalar va mustaqil foydalanuvchilar uchun kitobdan foydalanishning yangi bosqichlarini yaratadi. Shu kunga qadar mamlakatimizdagi barcha oliy ta'lim muassasalari, shahar va tuman AKMLari bir necha nomdagi kutubxonachilik platformalaridan foydalanib kelishayotgan edi. Uznil, Unicat, Armat, Armat+, Irbis32, Irbis 64 singari mahalliy dasturlarning yagona kamchiligi ular o'rtaсидаги umumiy birlikning mavjud emasligida edi. Ya'ni bitta kutubxona muassasasida elektron holatga o'tkazilib, dasturga yuklangan adabiyotdan boshqa AKM va ARMLar bevosita foydalanish imkoniga ega emas edilar. Aynan ushbu muammolarning yechimi sifatida yagona birlikni mujassamlashtirgan platformaga katta ehtiyoj sezilardi.

Amalga tatbiq etilayotgan noyob tizimlar natijasi esa kutubxonalar faoliyatiga ko'chib, ushbu tarmoqlarda yangi istiqbol sahifalarini ochmoqda. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirining 2022-yilning 13-iyul kunidagi 225-sonli "Oliy ta'lim tizimiga "Elektron kutubxona" platformasini joriy etish va doimiy faoliyatini ta'minlash to'g'risida" gi buyrug'ining amaliy ijrosini ta'minlash maqsadida, "Unilibrary.uz" oliy ta'lim muassasalarining yagona elektron kutubxona internet platformasi joriy etildi. O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, Oliy ta'limni rivojlantirish tadqiqotlari va ilg'or texnologiyalarni tatbiq etish markazi hamda Raqamli Ta'lim Texnologiyalarini Rivojlantirish Markazlari o'zaro hamkorlikda O'zbekiston hududidagi 68 ta Oliy ta'lim muassasalaridan jami 200 000 mingdan ziyod elektron resurslar bazasini yaratishga erishishdi. Mazkur internet platformasida o'quv adabiyotlar; ilmiy maqolalar; monografiyalar; dissertatsiyalar; avtoreferatlar va boshqa turdag'i adabiyotlar jamlangan. Shuningdek, "Unilibrary.uz" da 70 dan ortiq sohalar o'rinn olgan bo'lib, foydalanuvchi o'z qiziqishi yoki mutaxassisligi bo'yicha istalgan adabiyotdan online yoki yuklab olish orqali foydalanishiga erishildi.

Dunyoning birinchi raqamli kutubxonasi sanalmish AQSh kongressi kutubxonasi dunyo bo'ylab elektron kutubxona yaratish milliy dasturini amalga oshira boshlagan birinchi

kutubxona hamdir. Jahan statistik ma'lumotlariga qaraganda, 1994-yildan boshlab, AQShda NSF, DARPA va NASA tashabbusi bilan Digital Libraries initiative (DLI)- Raqamlı kutubxonalar tashabbusi nomli elektron kutubxonalar bo'yicha tadqiqot dasturi ish boshlagan. Oradan to'rt yil vaqt o'tib, u yagona tarmoqlararo dasturga birlashtirildi. Bu dasturga milliy tibbiyot kutubxonasi, AQSh statistika agentligi, Milliy gumanitar fond, AQSh milliy arxivsi va boshqa federal agentliklar qo'shildi. Ayni milliy dasturning istiqboli sifatida keyinchalik ham Buyuk Britaniya milliy dasturi — ELIB tizimi ishlab chiqildi. Keyingi yillarda qator mamlakatlar (Kanada, Germaniya va boshqalar)da elektron kutubxonalar tizimini tashkil etishga oid milliy va xalqaro loyihalarga e'tibor shu darajada kuchaydiki, uning natijasi o'laroq, EBSCO HOST, WEB OF SCIENCE, JSTOR, ProQuest, east view singari xorijiy ilmiy-ta'limiy bazalar dunyoga keldi.

Elektron kutubxonalar tizimiga o'tishning ustuvor jihatlari sifatida quyidagilarni sanab o'tish mumkin:

Birinchi; kitoblarni saqlash uchun maxsus joy zaruriyatining yo`qligi;

Ikkinchi; nodir asar va ma'lumotlarni saqlash va ulardan foydalana olish imkoniyatining mavjudligi;

Uchinchi; foydalanishning qulayligi va yangiligi;

To'rtinchi; qidiruv tizimlarining mavjudligi;

Beshinchi; ma'lumotlar hajmining cheklanmaganligi;

Oltinchi; ma'lumotni audio, video va kompyuter grafikasi yordamida sifatli va yaxshiroq aks ettirilishi;

Yettinchi; vaqtning tejalishi va cheklanmaganligi, ya'ni undan 24 soat mobaynida foydalanish mumkinligi;

Sakkizinchi; qo`shimcha xizmatlarning mavjudligi.

Kutubxona faoliyati bilan bog'liq bo'lgan axborotlarni raqamlashtirish o'z navbatida kutubxonachilardan ham zamonaviy informatsion texnologiyalardan foydalanish, ularni boshqarish kabi muhim vazifalarini yuksaltiradi. Eng muhim jihat esa, amalga oshirilayotgan noyob tizimlar tilsimi mamlakatimiz aholisining bosma va elektron kitoblardan foydalanishida yangi davrni ochib boraveradi.